

Sanoat Korxonalarida Mahsulot Ishlab Chiqarishning Ilmiy-Nazariy Asoslari

Научно-Теоретические Основы Производства Продукции На Промышленных Предприятиях

Scientific And Theoretical Foundations Of Product Manufacturing In Industrial Enterprises

Ochilova Nargiza Akramovna, i.f.f.d. (PhD), dotsent

Tojiyeva Farangiz Sherzodovna, 1-kurs talabasi

Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Каршинский государственный технический университет

Karshi State Technical University

Iqtisodiyot fakulteti

Факультет экономики

Faculty of Economics


Annotatsiya. Mazkur mavzuda sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-nazariy asoslari yoritiladi. Unda ishlab chiqarish tizimining tarkibiy qismlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish, texnologik jarayonlarning samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion yondashuvlarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi zamonaviy metodlar, sifat nazorati va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omillari tahlil qilinadi. Ushbu mavzu sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ilmiy asoslangan yondashuvning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, ishlab chiqarish jarayoni, texnologik tizim, rejalashtirish, innovatsiya, sifat nazorati, resurslar, samaradorlik, mahsulot raqobatbardoshligi.

Аннотация. Данная тема охватывает научно-теоретические основы производственных процессов промышленных предприятий. В нем рассматриваются составляющие производственной системы, планирование производства, эффективность технологических процессов, рациональное использование ресурсов и влияние инновационных подходов на производственный процесс. Также проанализированы современные методы организации производства, контроля качества и основные факторы конкурентоспособного производства. Данная тема раскрывает важность научно обоснованного подхода к обеспечению устойчивого развития промышленных предприятий.

Ключевые слова: промышленное предприятие, производственный процесс, технологическая система, планирование, инновации, контроль качества, ресурсы, эффективность, конкурентоспособность продукции.

Annotation. This topic covers the scientific and theoretical foundations of the production processes of industrial enterprises. It considers the components of the production system, production planning, the efficiency of technological processes, the rational use of resources and the impact of innovative approaches on the production process. It also analyzes modern methods of the organization of production, quality control and main factors of competitive



production. This topic reveals the importance of a science-based approach to ensuring sustainable development of industrial enterprises.

Key words: Industrial enterprise, production process, technological system, planning, innovation, quality control, resources, efficiency, product competitiveness.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-nazariy yondashuvlar sanoat ishlab chiqarishini yanada takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini yaratadi.

Korxona o'z faoliyati maqsadlarini ro'yobga chiqarishga ishlab chiqarilayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari yoki ko'rsatayotgan xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish hamda ana shu asosda mehnat jamoasi a'zolarining iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarining hamda korxona mol-mulki egasining manfaatlarini ta'minlash yo'li bilan erishadi.

Korxona o'z asosiy faoliyatini o'zining nizomida ko'zda tutilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiq ravishda amalga oshiradi. Korxona Nizomi esa respublika qonun va qoidalariga asoslanadi. Ishlab chiqarishni tashkil etish eng yaxshi ishlab chiqarish natijalariga kam xarajat bilan erishish uchun ishlab chiqarishning moddiy va mehnat elementlarini vaqtda va muhitda maqsadga muvofiq optimal uyg'unlashtirish jarayonidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish ishlab chiqarish jarayonida mehnat va texnikadan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etishga qarashlarni o'zgartirib yubordi.


Bugungi kunda bozordagi o'zgaruvchan talabga tez moslashuvchan, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratib beradigan yuqori darajadagi jarayon sifatida qarash oldingi o'ringa chiqdi. Ishlab chiqarish samaradorligi uni tashkil etuvchi elementlardan birgalikda oqilona foydalanishga bog'liq. Ishlab chiqarish ushbu elementlarni o'zaro aloqadorlikda o'rganish va ishlab chiqarish maqsadlaridan kelib chiqib ulardan foydalanishning samarali usullarini va sharoitlarini tanlashni ko'zda tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish deganda korxonalarning ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyati sharoitida iqtisodiy qonunlarning harakati va namoyon bo'lish shakllari va eng kam mehnat, moddiy va ma'naviy harakatlar bilan eng yaxshi natijalarga erishishni ta'minlovchi yuqori samarali ish usullarini ishlab chiqish tushuniladi. So'nggi yillarda, Yevropada, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlarida Ilmiy Menejerlar yollanma professional boshqaruvchilar nazariyasi keng tarqala boshladi. Ular xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini bilimdonlik asosida tashkil qilishdan tashqari, yangidan-yangi shart-sharoitlarni yaratib, mehnat unumdorligini oshirish yo'l yo'riqlari va omillarini ko'rsatib bermoqdalar. Rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tajribalarini o'rganishga tanqidiy qarashdan tashqari, kelgusida korxonalar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan usullarni o'rganish kerak.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishda iqtisodiy qonunlarning sanoat korxonalari faoliyatiga ta'sirini va ularning oldiga qo'ygan vazifalarini amalga oshirish borasidagi eng samarali usullarini ishlab chiqib, uni sanoatda tadbiq qilmoqda. Bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ijtimoiy boylikni ko'paytirish va korxonalarida ishchilarga yaxshi sharoitlar yaratib berishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi zamon korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish, jamiyat va shaxs manfaatini e'tiborga olgan holda o'zining mazmunli ilmiy asoslangan usul va shakllari bilan tubdan farq qilmog'i kerak. Korxonaning ishini ilmiy asosda tashkil qilish nazariyasi iqtisodiy



nazariya va respublikamizda ishlab chiqarish korxonalari faoliyati xususida qabul qilingan qarorlar, mehnatni va korxonada ishlab chiqarishni tashkil qilish masalalari bo'yicha yuqorida aytib o'tilgandan boshqa, barcha korxonalarning boy tajribalari e'tiborga olingan holda, yangi serqirrali nazariy fikr, usullarni amalda tadbiq etishga asoslangan. Korxona ishini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bu yerdan asosiy jarayonlarni, moddiy-texnika xizmat qiluvchi (dastgohlarni, elektr xo'jaliklarni, moddiy ta'minot, zavod ichida yuradigan transportlarni sozlash bilan shug'ullanuvchi) uchastkalar bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritish lozim.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirish borasida klassik yondashuvlarning yutuklaridan biri bu mehnatning qiymat nazariyasi"ni ishlab chiqilganligi hisoblanadi. Unga ko'ra, tovarning qiymatini unga sarflangan jami mehnat harajatlari tashkil etadi. D. Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan mazkur ilmiy qarash kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida "qiymat qonuni" sifatida baholangan. Ushbu ilmiy qarashda bugungi kundagi zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlarida maxsulotning qiymatini belgilash, ya'ni uni ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha turdagi harajatlarni hisoblash amaliyoti uchun xos bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi uning ahamiyatini hali xanuz yo'qotmaganligiga asos bo'la oladi.

Shuningdek, klassik iqtisodiy maktab vakili hisoblangan J.B. Sey tomonidan ishlab chiqilgan Sey qonuni'ga ko'ra, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirishda ishlab chiqarish omillari hisoblangan mehnat, kapital va yer o'rtasidagi eng samarali mutanosiblikni ta'minlash talab etiladi. Bunday mutanosiblikni ta'minlashda esa mamlakat milliy iqtisodiyotida to'la erkinlik shakllangan bo'lishi talab etiladi. Bugungi zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirishda uning turli kompozitsiyalari ichidan eng optimal variantdagi turini tanlash va undan amaliyotda fondalanish hisobiga sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini takomillashtirish bo'yicha tegishli fikrlar bildirib o'tilganligi sababli ushbu ilmiy nazariya ham hali xanuz ham ilmiy ham amaliy jihatdan o'z ahamiyatini yo'qotmagan hisoblanadi. [2; 562,568-b]


Sey qonuni sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlariii tashkil etish va uni shakllantirishga bag'ishlangan ayrim iqtisodiy tadqiqotlarda "bozor qonuni" yoki "sotish nazariyasi" sifatida ham nomlangan. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini shakllantirish va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy qarashlar neoklassik iqtisodiy maktab vakillari hisoblangan A. Marshall, L. Valras va P.Samuelsonlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda raqobatli bozor sharoitida ishlab chiqarish omillari va tovarlarning bozor narxi shakllanishi o'rganilgan. Unga ko'ra, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish harajatlarini tadqiq etishda "eng so'nggi", "me'yoriy miqdorlar, jumladan, "me'yoriy nafililik", "me'yoriy unumdorlik", "me'yoriy tushumlar" va "me'yoriy harajatlar" o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklariii tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida shakllangan xulosalarda belgilangan "me'yoriy miqdorlar" xo'jalik faoliyati yuritish imkoniyatiga mos holda turli korxonalarda turlicha bo'lishi lozimligi belgilangan. Shuningdek, "me'yoriy miqdorlar" tovar va xizmatlarning bozor narxini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishi aytib o'tilgan. [7; 602-b]

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish bu xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni bo'lib, u mehnat vositalari, ishlab chiqarish kuchlari va boshqaruv tizimi o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritgan taqdirda yuqori samaradorlikka erishiladi. Sanoat korxonalarida bu jarayon texnologik, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan puxta rejalashtirilgan bo'lishi zarur.

Ilmiy yondashuv ishlab chiqarishdagi barcha bosqichlarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ilg'or tajribalarga tayangan holda takomillashtirishga asoslanadi. Bu jarayonda quyidagi nazariy tushunchalar muhim o'rin tutadi:

Texnologik tizimlar nazariyasi ishlab chiqarish jarayonining strukturasi va tarkibini aniqlaydi.



Samaradorlik nazariyasi resurslardan foydalanish darajasini o'lchash va oshirishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion yondashuv yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish imkonini beradi.

Mahsulot ishlab chiqarishni samarali tashkil etish uchun strategik va operativ rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda ishlab chiqarish hajmi, muddatlari, xarajatlar, mehnat taqsimoti va logistika tizimi hisobga olinadi. Zamonaviy boshqaruv tizimlarida raqamli texnologiyalardan, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalaridan keng foydalanilmoqda.

Mahsulot sifati bugungi kunda raqobatbardoshlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ilmiy yondashuv asosida sifatni nazorat qilish tizimlarini joriy etish, standartlarga rioya qilish va doimiy takomillashtirish ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlaydi. Sifatli mahsulot korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qomusi va respublikada qabul qilingan barcha qonun va qoidalar asosida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonalarda jonli va buyumlashgan mehnat tizimini yaxlit va yagona hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning asosi deb qarash;
- korxonalarda ishlab chiqarish tizimining o'zgarish shakllari va yo'llari, ishlab chiqarish faoliyatining maqsad va vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari va baholash mezonlarini o'rganish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining mohiyati, ahamiyati, mazmunini, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish, korxona infratizimining amaliy masalalarini o'rganish;
- iqtisodiy islohotlar sharoitida korxonalarda boshqarishni, ayniqsa iqtisodiy boshqarishni, rejalashtirish, baholash, moliyalash, kreditlash muammolarini yechishni o'rganish.[3; 345,350-b]

Raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga bog'liq. Mahsulot ishlab chiqarishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur anglash, uni amaliyotda qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifatni yaxshilash va xarajatlarni optimallashtirish mumkin.


Mahsulot ishlab chiqarishning ilmiy-nazariy asoslari bu ishlab chiqarish jarayonlarini tizimli, aniq va samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan fundamental bilimlar va konsepsiyalar majmuasidir. Bu asoslar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ishlab chiqarish tizimi va uning tuzilishi
- Texnologik jarayonlar nazariyasi
- Resurslardan foydalanish samaradorligi
- Sifat menejmenti va innovatsion yondashuvlar

Bu nazariy tushunchalar sanoat korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini yanada samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Ilmiy asoslangan ishlab chiqarish quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Rejalashtirishning aniqligi ishlab chiqarish bosqichlari puxta rejalashtirilib, noaniqliklar kamayadi.
2. Xatoliklar va yo'qotishlarning oldini olish tajriba va ilmiy izlanishlar asosida qarorlar qabul qilinadi.
3. Innovatsiyalarni tez joriy etish ilmiy bilimlar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishga zamin yaratadi.
4. Sifatni boshqarish mahsulot sifatini muntazam nazorat qilish va takomillashtirish imkoniyati kengayadi.



5. Resurslarni tejash xom ashyo, mehnat va vaqt kabi resurslardan maksimal foydalanigan holda ishlab chiqarish amalga oshiriladi. [5; 342,348-b]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni ilmiy-nazariy asoslarda tashkil etish bu zamonaviy raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning kafolatidir. Ilmiy yondashuv samaradorlikni oshiradi, innovatsiyalarni tez joriy qilish imkonini beradi hamda resurslardan optimal foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa sanoat rivojining barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy-nazariy asoslarda tashkil etish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bugungi kunda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali innovatsion rivojlanishga erishish mumkin. Shunday ekan, har bir sanoat korxonasi uchun ilmiy yondashuv asosiy ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADANIYOTLAR

1. Кенэ Ф. Избранные экономические произведения. М.: Соцэкгиз, 1960. - 551 с.
2. Qosimov S.Q., Jo'rayev M., G'ofurov Z. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019. 562-568
3. Soliyev A.M., To'xtayev M.B. Sanoat iqtisodiyoti va ishlab chiqarishni tashkil etish. – T.: Fan va texnologiya, 2021. 345-350
4. Porter M. Raqobat ustunligi (Competitive Advantage). – Moskva: Alpina Publisher, 2019. 456
5. Khamidov A., Tursunov B. Sanoat korxonalarini boshqarish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. 342-348
6. Энгельс Ф. Анти-Дюринг. Переворот в науке, произведённый господином Евгением Дюрингом. М.: Политиздат, 1973. - 483 с.
7. Marshall A: The pure theory of foreign trade; and the pure theory of domestic values / By Alfred Marshall [The pure theory of domestic values]. London: The London School of Economics and Political Science: 2nd Edition, 1935. – 602 pp.
8. Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии – М.: Изограф, 2000. – 448 с.
9. Самуэльсон П. Цены факторов производства и товаров в состоянии общественного равновесия // Вуки экономической мысли, Т. 6. Международная экономика – М.: ТЕИС, 2006. – с. 391-409